



## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-may holatiga)**

Ro'yxatdan  
o'tgan  
**78,5 ming.**

2019-yilning 1-may holatiga 78,5 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,6 foizga o'sgan.

Faoliyat  
ko'rsatayotgan  
**75,9 ming.**

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 12,2 mingta (16,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 75,9 mingtani tashkil etgan.

Yangi tashkil  
etilganlar  
**8,1 ming.**


2019-yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahrida 8,1 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 mingtaga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-may holatiga)



2019-yilning 1-may holatiga 78,5 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,6 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,6 % - savdo, 18,4 % - sanoat, 7,4 % - qurilish, 7,2 % - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,1 % - tashish va saqlash, 3,8 % - axborot va aloqa, 1,8 % - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 0,9 % - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 32,8 % - boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (18555 ta) savdo, (14451 ta) sanoat, (5803 ta) qurilish, (737 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (5694 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (3206 ta) tashish va saqlash, (2986 ta) axborot va aloqa, (1442 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda (25684 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 75.9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 12.2 mingta (16,1 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi




Yashash va  
ovqatlanish  
bo'yicha  
xizmatlar




Tashish va  
saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash  
va ijtimoiy  
xizmatlar  
ko'rsatish



Boshqa  
turlari

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni tumanlar kesimida, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (10176 ta), Chilonzor (9666 ta), Mirzo Ulug'bek (8545 ta), Olmazor (8120 ta), Shayxontohur (7401 ta), Yakkasaroy (6902 ta), Uchtepa (6927 ta), va Mirobod tumanlar (28489 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yashnobod (5583 ta), Sirg'ali (4469 ta) hamda Bektemir (1767 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-aprel oylarida 8154 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 3791 taga ko'pdir.



2019-yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

49,4 %



Sanoat

14,5 %



Qurilish

7,6 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,5 %



Tashish va saqlash

2,9 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

0,8 %



Axborot va aloqa

2,8 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,1 %



Boshqa turlari

15,4 %



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (4029 ta), sanoat (1179 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (450 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (232 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (91 ta), hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (62 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



4029

Tashish va saqlash



1233

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



450

Qurilish



616

Sanoat



1179

Axborot va aloqa



232

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



91

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



62


Boshqa turlari



1262


# Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Uchtepa (1327 ta), Olmazor (1051 ta), Chilonzor (1011 ta), Yunusobod (893 ta), Shayxontohur (793), Mirzo Ulug'bek (698 ta) va Mirobod (561 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (542 ta), Yakkasaroy (497 ta), Sig'ali (457 ta) hamda Bektemir (324 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2017-2019-yillarning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni**



Korxonalar sonining o'sishi, birlikda



# TIJORAT KORXONALARI


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 67,2 mingtani tashkil qildi

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonalar




Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5208 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1325 taga yoki 25,4 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

(1-may holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati %




Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2352 tasi qo'shma, 2856 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod tumanida 5208 ta (jamidagi ulushi 16,5 %), Yakkasaroy tumani 822 ta (15,8 %), Yunusobod tumanida 685 tani (13,2 %), Mirzo Ulug'bek tumanida 654 ta (12,5 %), Chilonzor tumanida 612 ta (11,8 %), Yashnobod tumanida 422 ta (8,1 %) va Shayxontohur tumanida 369 ta (7,1 %) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor tumanida 296 ta (5,7 %), Sirg'ali tumanida 200 ta (3,8 %), Uchtepa 160 ta (3,1 %) hamda Bektemir tumanlarida 126 ta (2,4 %) tashkil etgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklariga to'g'ri keladi.


# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 626 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 479 taga ko'paygan.

Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 87 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 80 ta, Turkiya Respublikasi – 102 ta, Qozog'iston Respublikasi – 84 ta va Koreya Respublikasi – 47 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 222 ta, sanoatda 123 ta, qurilishda 93 ta va 188 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda



2019-yil 1-may holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 66,4 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 17,7 % ga oshgan.

2019-yil yanvar-aprel oylarida 7,8 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 47,6 mingtaga ko'proqdir.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi 1 may holatiga

## • Eng katta ulushi

## • Eng kichik ulushi



•Yunusobod tumani  
13,3 %



•Yakkasaroy tumani  
9,3 %



•Chilonzor tumani  
12,6 %



•Mirobod tumani  
8,0 %



•Olmazor tumani  
11,1 %



•Yashnobod tumani  
7,3 %



•Mirzo Ulug'bek tumani  
11,0 %



•Sirg'ali tumani  
6,0 %



•Shayxontohur tumani  
9,5 %




•Bektemir tumani  
2,4 %



•Uchtepa tumani  
9,5 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 66,4 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 17,8 mingta (26,9 %) – savdo, 13,9 mingta (21,0 %) - sanoat, 5,6 mingta (8,4 %) - qurilish, 0,7 mingta (1,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,3 mingta (8,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,1 mingta (4,6 %) - tashish va saqlash, 2,8 mingta (4,2 %) - axborot va aloqa sohasi, 1,2 mingta (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, 16,0 mingtasi (24,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

0,8




Sanoat

14,8



Qurilish

7,7




Savdo

51,0



Tashish va saqlash

3,0



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

5,6




Axborot va aloqa

2,8



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2




Boshqa turlari

13,0



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 4027 ta, sanoat 1173 ta, qurilish 614 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 449 ta tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda 233 ta, axborot va aloqada 228 ta hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 88 ta tashkil etilgan.


## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Uchtepa (1315 ta), Olmazor (1027 ta), Chilonzor (976 ta) va Yunusobod (859 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yakkasaroy (475 ta), Sirg'ali (445 ta) hamda Bektemir (322 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1 may holatiga )




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-may holatiga



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,0 % yoki 1047 tasi sanoat, 17,2 % yoki 429 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,5 % yoki 486 tasi savdo, 2,4 % yoki 60 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 36 tasi qurilish, 0,9 % yoki 22 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 19 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % yoki 38 tasi axborot va aloqa hamda 14,3 % yoki 358 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Toshkent shahar  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi boshlig'i  
Rashidov Aziz  
Tel.:71-230-88-31**